

## **Erasmus+ loyihalari O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limini rivojlantirish va modernizatsiyasiga oliy ta'lim salohiyatini oshirishdagi ta'siri haqidagi hisobotning qisqacha mazmuni**

2020 yil noyabr-dekabr oylarida onlayn savolnoma, ekspertlar bilan suhbatlar, fokus-guruhlar, O'zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi tomonidan joylarda tashkil etilgan monitoring uchrashuvlari (Field Monitoring) hamda institutsional monitoring uchrashuvlari (Institutional Monitoring) natijalarining tahlili asosida Tempus va Erasmus+ dasturlarining tadqiqoti olib borildi. Erasmus+ dasturi O'zbekistondagi yagona va Yevropa Ittifoqi universitetlari bilan hamkorlik doirasida oliy ta'limining rivojlanishi va modernizatsiyasiga tizimli ta'sir ko'rsatgan o'ziga xos va yagona dasturlaridan biridir. Ushbu xulosa 2020 yil 19-20 noyabr kunlari bo'lib o'tgan Erasmus+ CBHE loyihalarining ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan mintaqaviy klaster yig'ilishining hisobotida ham o'z aksini topdi.

Dasturning oliy ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirishga va tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha Hukumat qarorlariga o'z vaqtida javob berishi va ta'siri bo'yicha 2015 yil CBHE loyihalarining birinchi avlodi yakuniy hisobotlarini tahlil qilish asosida Yevropa ta'limi va madaniyat bo'yicha Ijroiya agentligi (EACEA) tomonidan tayyorlangan Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy hisobotida ham tasdiqlangan. Bundan tashqari, Tempus va Erasmus+ dasturlari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan, shuningdek Sog'liqni saqlash, Qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish, Tashqi ishlar, Innovatsion rivojlanish kabi boshqa tarmoq vazirliklari va idoralari tomonidan yuqori baholandi.

Biroq, tadqiqotni o'rganish davrida loyiha komanda a'zolari Erasmus+ loyihalarini amalga oshirishda duch kelgan bir qator qiyinchiliklar va muammolar mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot ishtirokchilarining chiqishlari va so'rovnomalarida qayd etgan qiyinchiliklar va muammolar ham tizimli, ham yakka xarakterga ega edi.

Tadqiqotda qatnashgan barcha ekspertlar va respondentlarning ta'kidlashicha, Tempus va Erasmus+ loyihalarining ta'sirisiz 2017-2020 yillarda O'zbekistondagi oliy ta'limning bunday zamonaviy modernizatsiyasiga, ayniqsa, yangi va ko'pincha innovatsion ta'lim sohalarida erishish qiyinchilik tug'dirishi mumkinligini qayd etdi.

**Umuman olganda, rahbarlar Tempus va Erasmus+ loyihalarini amalga oshirish uchun yagona qizil chiziqqa ega ekanligini ta'kidladi. Ushbu yo'nalish 1994 yildan beri Tempus dasturi doirasida loyihalarining oliy ta'lim tizimini isloh qilish va modernizatsiyalashga hamda salohiyatni oshirishga ta'sirining boshidanoq aniq olib borilmoqda.**

**2015 yildan boshlab, u Erasmus+ dasturi yordamida ushbu o'zgarishlarning natijalarini oliy ta'lim tizimiga joriy etish va keng ommaga yetkazish nuqtai nazaridan davom etib kelmoqda. Gap shundaki, loyihalar ta'siri kelajakdagi Erasmus dasturi (2021-2027) yordamida milliy oliy ta'lim tizimining innovatsionligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.**

Bundan tashqari, 2017-2020 yillar mobaynida O'zbekistondagi universitetlar sonining tubdan ko'payishi (2017 yilda 60 tadan, 2020 yil oxirida 129 taga), shu jumladan

chet el universitetlari filiallari va ko'plab nodavlat va xususiy universitetlarning paydo bo'lishi, shuningdek, Tempus va Erasmus+ loyihalarida qatnashgan va malaka oshirgan xodimlar yordami katta ahamiyatga ega ekanligi tan olish muhim.

Tempus va Erasmus+ dasturlarining ta'sirini<sup>1</sup> o'rganish davomida ko'plab ishtirokchilar loyihalarda ishtirok etishdagi qiyinchiliklar va muammolarning oldini olish bo'yicha bir qator fikr va tavsiyalar bilan bo'lishdi, ammo qayd etilgan barcha muammolar erishilgan natijalar va dasturning ta'siri, ularning individual kasbiy rivojlanishiga, kafedralar va universitetlarning salohiyatini kuchaytirishga, shuningdek mintaqaviy va milliy darajadagi tizimli ta'siri bilan belgilandi.

Shuningdek, Oliy ta'lim bo'yicha ekspertlar Milliy guruhi a'zolari tomonidan ushbu hisobotga ilova sifatida 6 ta tahliliy ma'lumot tayyorladi.

2017 yildan 2020 yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan islohotlarga bag'ishlangan CBHE loyihalarining kelajakdagi milliy va mintaqaviy ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha qaror qabul qilishga imkon berdi, shuningdek 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida rivojlanish yo'nalishlarini tavsiflovchi quyidagi dolzarb mavzular oshkor qilindi: davlat boshqaruvi va iqtisodiyot; oliy ta'lim sohasidagi islohotlar; ilm-fan va innovatsiyalar sohasida; qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash.

Har bir tahliliy ma'lumotda Erasmus+ CBHE loyihalarining qisqacha tavsiflari va web-saytlari ko'rsatilgan, shuningdek ularning amalga oshirish davomida erishilgan asosiy natijalar ro'yxati taqdim etilgan.

Tadqiqot mualliflari COVID-19 koronavirus pandemiyasi paytida O'zbekistondagi Erasmus+ loyihalarini amalga oshirishning ba'zi jihatlarini e'tiborsiz qoldirmadi. Onlayn so'rov o'tkazildi va mutaxassislar bilan suhbatlar va fokus-guruhlar davomida tegishli masalalar muhokama qilindi. Ushbu tadqiqotning umumiy xulosasi, Erasmus+ loyihalari, xususan mobillik bilan bog'liq vazifalar va tadbirlarga davlat tomonidan qo'llanilgan karantin choralarining juda jiddiy ta'sirini ko'rsatdi.

Shunga qaramay, hamkorlik va loyihalarni amalga oshirish davom etdi va faqat alohida holatlarda loyihalar faoliyati to'liq tugatildi. Erasmus+ dasturi doirasidagi barcha manfaatdor tomonlarning, shu jumladan yevropalik hamkorlar, OO'MTV va Erasmus+ milliy ofisining har tomonlama ko'magi respondentlar tomonidan to'liq his qilinganligi va yuqori baholanganligini o'rganish juda muhimdir.

Ushbu tadqiqotning formati tahlil natijalarning butun spektrini joylashtirishga imkon bermaydi, ammo eng ko'zga ko'ringan fikrlar, muammolar va tavsiyalar ko'rsatildi.

---

<sup>1</sup> National Impact Study - NIS